

# MAKTABGACHA TA`LIM YOSHIDA BOLALARGA ERTAK VA HIKOYALAR AYTIB BERISH USULLARI

**Azizova Ziroat Bahodirovna**-Qo`qon davlat pedagogika instituti  
o`qituvchisi.

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalarga ertak va hikoyalar aytib birishning zamonaviy usul va metodlari haqida fikr yuritilgan. Bu usullarda ko`rgazmalilik, kuzatish muhim rol o`ynashi hamda bolalar o`zlari va tengdoshlarining buyum-narsalarini taqqoslashlari, o`xshash va farqli tomonlarini bilib olishlari aytib o`tilgan.

**Kalit so`z va iboralar:** Idrok etish, eslab hikoya qilish, tasavvur etib hikoya qilish, pyesa sahnalashtirish, panelli bino, metod-usullar, innovatsion g`oyalar.

## METHODS OF TELLING FAIRY TALES AND STORIES TO PRESCHOOL CHILDREN

**Azizova Ziroat Bahodirovna**-Kokan State Pedagogical Institute is a teacher.

**Annotation:** This thesis talks about the development of the speech of preschool children with the help of telling fairy tales and stories, touches on some aspects of the methods and techniques for teaching children to retell from illustrations and attributes.

**Key words and expressions:** Cognition, recollection, figurative narration, staging a play, panel construction, methods, innovative ideas.

**Аннотация:** В данном тезисе говорится о развитии речи детей дошкольного возраста с помощью рассказывания сказок и рассказов, затронуты некоторые аспекты методов и приёмов обучению детей пересказыванию с иллюстраций и атрибутов.

**Ключевые слова и выражения:** Познание, воспоминание, образное повествование, постановка пьесы, панельное построение, методы, новаторские идеи.

Hikoya tuzish jarayonida bolalarning narsalarni ko`rib idrok etishi, eslab hikoya qilish, tasavvur etib hikoya qilish kabi qismlarga bo`linadi.

Koʻrgan narsalarni idrok etib yoki eslab hikoya qilish aniq materiallar asosida tuziladi. Ulardan tasavvur etib hikoya qilish – ijodkorlikni talab qiladi. Bu hikoyalarning hammasi ham nutqning bogʻliqligi va maqsadga yoʻnaltirilganligi bilan muhimdir. Hikoya qilish usullari xilma-xildir. Jumladan, tarbiyachi tomonidan hikoyaning qisqacha namunasi berilishi mumkin. Bunda hikoyaning bir qismi tuziladi yoki oʻyin tarzida bayon etiladi. Soʻng bolalarning oʻzlari hikoya tuzadilar. Masalan, «Bizning vrach» hikoyasi qanday yaratilganligini koʻrib chiqaylik. Mashgʻulotning maqsadi tibbiy yordam koʻrsatish namunasida bemorlarga gʻamxoʻrlik tuygʻusini tarbiyalash orqali bolalar nutqini rivojlantirishdan iborat.

Hikoya oʻyin jarayonida oʻyinchoqlar vositasida bemorga tibbiy yordam koʻrsatish, «bemor», «tez yordam» xodimlari bilan muloqot asosida tuziladi. Sardorning hikoyasi: «Sanjar qovunni koʻp yeb qoʻyib, qorni ogʻrib qoldi. Otasi «tez yordam» chaqirdi. Vrach kelib, bemor Sanjarga tezkor tibbiy yordam koʻrsatdi. Sanjarning otasi, onasi vrachga tashakkur bildirdilar».

Mehrinisoning hikoyasi: «Gulnoza dam olish kuni opasi, singlisi bilan hovlida oʻynadi. Oyisi murabbo qaynatish uchun bir chelak olxoʻri olib kelgan edi. Gulnoza, opasi, singlisi oʻynab-oʻynab chanqadilar. Olxoʻridan yeb olib, bir necha marta sovuq suv ichishdi. Uchallasining ham qorni ogʻrib, isitmasi koʻtarildi. Ularni dadasi mashinada poliklinikaga olib bordi. Poliklinikada bolalar vrachi, hamshira opa ularga shoshilinch yordam koʻrsatdi. Ular kerakli dori-darmonlarni olib, tezda sogʻayib ketdilar. Shundan soʻng hoʻl meva yeb, qaynatilmagan suv ichmaydigan boʻldilar».

Hikoya tuzishda uning rejasi, mazmunining asosiy qismlari bolalar tomonidan muhokama etilib, maʼlum qismi bayon qilinadi. Bolalar yoʻl qoʻygan xatolar tuzatib boriladi va oxirida xulosa qilinadi. Maktabgacha taʼlim muassasalarida «Bogʻcha sahnasi uchun saboq» nomli bir pardali, bir koʻrinishli pyesa sahnalashtirilib, namoyish etiladi va bolalarda katta qiziqish uygʻotadi. Spektakldan soʻng tarbiyachi bolalardan asar voqealarini hikoya qilib berishni soʻraydi. Bolalar koʻrgan-kuzatganlarini qoldirmasdan hikoya qiladi:

Sobir. Katta ko'chada mashinalar g'iz-g'iz o'tib turganda, birdan ko'chani o'rtasida samokat uchib kelayotgan Bo'rivoy ko'rinadi. U mashinalarning ishorasiga ham e'tibor bermaydi. Shunda svetafor uni to'xtatadi va tanbeh beradi. Bo'rivoy bunga e'tibor bermay, qochib qoladi.

Sanjar. Svetafor va qaerdandir paydo bo'lgan Bo'rivoy quyonlarni quvib ketishadi. Bo'rivoy qo'lga olindi. DAN mashinasi yetib keladi va Bo'rivoy qafasga qamaladi.

Zuhra. Quyonlar Bo'ridan qutilganiga xursand bo'lganidan sakrab o'ynay boshlaydilar. Birdan mashinalardan biri quyonchani urib yuboradi. «Tez yordam» mashinasi yetib keladi va quyonchani oyog'ini gipslab qo'yadi. Quyonlar yo'l harakati qoidasiga rioya etmay ko'chada o'ynaganlari uchun shikast yeydilar.

Har uchala tarbiyalanuvchi ham yo'l harakati qoidalarini kuzatganlari asosida esda saqlab qolganlarini to'g'ri izchil, gapirib beradilar. Ularning hikoyasini boshqa bolalar to'ldiradilar.

Bu usulda ko'rgazmalilik, kuzatish muhim rol o'ynaydi. Bolalar o'zlari va tengdoshlarining narsalarini taqqoslaydilar, o'xshash va farqli tomonlarini bilib oladilar. Bu jarayonda hikoyani «to'qish» oddiydan murakkabga qarab boradi. «Kim tez va chiroyli uy qura oladi?» o'yini bolalarning fikrlash doirasi nihoyatda kengligini ko'rsatadi. Mashg'ulotning maqsadi bolalarni bir qavatli va ko'p qavatli uylar qurish, qurilish vositalari, quruvchilar haqida ijodiy tasavvur qilishga, o'ylashga, fikr yuritishga yo'llash, quruvchilar mehnati bilan tanishtirish asosida nutqini rivojlantirishdan iboratdir.

Qurilish materiallari: G'isht, panel, bloklar, ko'tarma kranlar, yuk mashinalar, ishchilar uchun ish qurollari, uy maketlari, mashg'ulot uchun ko'rgazmali qurollar vazifasini o'taydi.

Bolalar uch guruhga bo'linib, tarbiyachining topshirig'i bo'yicha turar joy, bolalar bog'chasi, do'kon qurishni boshlab yuboradilar. Qurilish materiallari, ish qurollari har uch guruhga bab-baravar taqsimlanadi. Bir guruh bolalar rasmga qarab, turar joy binosi, ikkinchi guruh bog'cha, uchinchi guruh esa do'kon quradilar. Bolalar faqat rasmdagi tasvirga qarab emas, o'zlarining tasavvurlaridagi imoratlarni

qurishlari mumkin. Masalan, rasmdagi turar joy binosi to‘qqiz qavatli panelli bino bo‘lsa-da, kichkintoy quruvchilar negadir besh qavatli g‘ishtli imorat quradilar. Do‘kon rasmda ikki qavatli bo‘lsa, ular bir qavatli qilib quradilar.

Imoratlarni qurishda bo‘sh qolgan bolalar ham uch guruhga bo‘linib, «quruvchilar»ga yordam beradilar (og‘zaki).

Turar joy hovlisiga yuk mashinalari birin-ketin kirib kela boshlaydi. Bular yangi turar joyga ko‘chib kelayotgan «xonadon»larning yuklari bo‘lishi mumkin.

Do‘kon ham gavjum. Hamma qo‘g‘irchoqlar xarid bilan band. Nihoyat, asosiy muammo, bolalarning o‘zlari qurgan binolari haqidagi hikoyalari tinglanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Толипова Ж.О. Педагогик технологиялар-дўстона муҳит яратиш омили. -Т.: ЮНИСЕФ, 2005 й.

2.Толипов У .1С, Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари (ўқув қўлланма).-Т.:«Фан» нашриёти,2006 й.

3. Мирзиёев Ш.М. “2017-2021-йилларда мактабгача таълим тизимини яна такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. Т.:-2016й. 2 декабр.

4. Н. Қаямова. Мактабгача педагогика. Т.: ТДПУ 2017йил

5.Файзуллаева Н. Педагогик билимлар - ўқитувчи касбий маҳоратининг назарий асоси //Узлуксиз таълим ж. - Т.: 2006. 6-сон

6.Файзуллаева Д.М., Ганиева М.А., Неъматов И. Назарий ва амалий ўқув машғулотларда ўқитиш технологиялари тўплами / Мет.қўлл. Ўрта махсус, касб-ҳунар таълимида инновацион таълим технологиялари сериясидан - Т.: ТДИУ, 2013. - 137 б.

7.Холиқов А. Педагогик маҳорат. -Т.: Дарслик. Иқтисод -молия, 2011.-420 б.

11.Abdurashidov, Adhamjon Abdulhamitovich, and Munisa Maxmudjon qizi Yunusova. "THE IMPORTANCE OF ORGANIZING CHILDREN'S ACTIVITIES IN PREPARATION FOR SCHOOLING." Results of National Scientific Research International Journal 1.9 (2022)106-111.

15. Mirzaeva, Farokhat, et al. "IMPROVING THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON A PEDAGOGICAL INNOVATIVE APPROACH." PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology 17.6 (2020): 8919-8926.

16. Raximova, Feruzaxon Muxammadjonovna. "PROBLEMS OF ESTABLISHING AND STRENGTHENING THE MATERIAL BASE OF PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION." Актуальные научные исследования в современном мире 4-7 (2021): 51-56.

17. Muxammadjonovna, Raximova Feruzaxon. "Difficulties in organizing the education and upbringing of visually impaired children of preschool age." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.12 (2022): 90-93.
18. Muxammadjonovna, Rakhimova Feruzaxon. "Some Types of Technology for the Physical Development of Preschool Children." Miasto Przyszłości 29 (Азизова, Зиروات. "ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ С ПОМОЩЬЮ ФОРМ И МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ." Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar 2.17 (2022): 77-80.
19. Bahodirovna, Azizova Ziroat. "THE IMPORTANCE OF ORGANIZING CHILDREN'S ACTIVITIES IN PREPARATION FOR SCHOOLING." Open Access Repository 9.11 (2022): 236-240.
20. Bahodirovna, Azizova Ziroat. "INTERNATIONAL TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 458-461.
21. Ziroat, Azizova, and Abdurazzoqova Zebiniso. "LEGAL AND PEDAGOGICAL BASES OF PREPARATION OF CHILDREN FOR THE IMPLEMENTATION OF SOCIAL PROTECTION." Yosh Tadqiqotchi Jurnal 1.5 (2022): 395-403.
22. Азизова, Зиروات Баходировна. "IMPROVING STUDENTS INDEPENDENT WORK IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM." Актуальные научные исследования в современном мире 2-5 (2021): 209-212.
23. Азизова, Зиروات Баходировна. "СИСТЕМА ГАРАНТИЙ ПРАВ РЕБЕНКА В УЗБЕКИСТАНЕ." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.11 (2021): 575-578.
24. Bahodirovna, Azizova Ziroatkhon. "Pedagogical Bases Of Preparation Of Future Educators For Implementation Of Social Protection Of Children." JournalNX 7.04: 399-402.
25. Ziroat, Azizova. "CONCEPTUAL FUNDAMENTALS OF PREPARING CHILDREN FOR SOCIAL PROTECTION." Yosh Tadqiqotchi Jurnal 1.5 (2022): 404-410.2022): 145-146